MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR DIALEKTIKASI: O‘ZBEK FALSAFIY TAFAKKURI VA ERKIN YUSUPOV QARASHLARI MISOLIDA

Saydullayev Nurmuhammad Ziyodulla o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi xodimi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23509753

Annotatsiya. *Maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi o‘zbek falsafiy tafakkuri doirasida tahlil qilinadi. Qadriyatlarning inson, jamiyat, axloq va ma’naviy kamolot bilan bog‘liq jihatlari E. Yusupov, Q. Nazarov va boshqa o‘zbek faylasuflarining qarashlari asosida yoritiladi. Milliy qadriyatlarning umuminsoniy mazmun kasb etishi hamda ularning jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotidagi o‘rni ochib beriladi.*
Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, qadriyatlar falsafasi, o‘zbek falsafiy tafakkuri, Erkin Yusupov, axloq, ma’naviy kamolot, inson va jamiyat.*
Аннотация. *В статье анализируется взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей в рамках узбекской философской мысли. На основе взглядов Э. Юсупова, К. Назарова и других узбекских философов рассматривается связь ценностей с человеком, обществом, нравственностью и духовным совершенствованием. Раскрывается процесс приобретения национальными ценностями общечеловеческого содержания, а также их значение в развитии общества и совершенствовании личности.*
Ключевые слова: *национальные ценности, общечеловеческие ценности, философия ценностей, узбекская философская мысль, Эркин Юсупов, нравственность, духовное совершенствование, человек и общество.*
Abstract. *The article analyzes the relationship between national and universal values within Uzbek philosophical thought. Drawing on the views of Erkin Yusupov, Qiyomiddin Nazarov, and other Uzbek philosophers, it examines the connection of values with the human being, society, morality, and spiritual development. Particular attention is given to how national values acquire universal significance and to their role in social development and human perfection.*
Keywords: *national values, universal values, philosophy of values, Uzbek philosophical thought, Erkin Yusupov, morality, spiritual development, human and society.*

KIRISH. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Inson o‘z hayoti davomida yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, erkinlik, burch, mas’uliyat, inson qadr-qimmati kabi tushunchalarga munosabat bildiradi. Ana shu munosabat orqali uning hayotiy qarashlari va ma’naviy mezonlari shakllanadi. Shu sababli qadriyat masalasi falsafada insonning hayot mazmuni, jamiyatdagi o‘rni va boshqalar bilan munosabatini tushunishga xizmat qiladigan muhim mavzulardan biridir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabat bu masalaning alohida jihatini tashkil etadi. Milliy qadriyatlar muayyan xalqning tarixi, hayot tarzi, dunyoqarashi va ma’naviy tajribasi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa turli xalqlar hayotida uchraydigan va inson uchun umumiy

ahamiyatga ega bo‘lgan ezgulik, adolat, tinchlik, erkinlik, insonparvarlik kabi mezonlarni ifodalaydi. Biroq ularni bir-biridan ajratilgan ikki alohida tizim sifatida tushunish to‘g‘ri emas. Umuminsoniy mazmun ko‘pincha milliy hayot va madaniyat orqali namoyon bo‘ladi, milliy qadriyatlar esa insoniy ahamiyat kasb etishi orqali kengroq mazmunga ega bo‘ladi.

Bu masalaga Qiyomiddin Nazarov ham alohida e’tibor qaratadi. Faylasufning fikricha, “milliylik va umuminsoniylik bir butun madaniyatning ikki tomoni, bir-birini taqozo etuvchi jihatlardir”[7]. Ushbu qarash milliylik bilan umuminsoniylik o‘rtasidagi munosabatni qarama-qarshilik sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik sifatida tushunishga imkon beradi. Milliylik xalqning o‘ziga xosligini saqlasa, umuminsoniylik uni boshqa xalqlar va butun insoniyatga xos umumiy qadriyatlar bilan bog‘laydi.

Akademik Jondor Tulenov ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro ta’siriga katta ahamiyat bergan. U: “Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog‘liq. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta’sir etadi, biri ikkinchisini to‘ldiradi, mazmunan boyitadi”, deb yozadi[8]. Bu fikr qadriyatlarning rivoji yopiq jarayon emasligini ko‘rsatadi. Har bir xalq o‘z qadriyatlarini saqlagan holda boshqa xalqlarning ma’naviy tajribasidan ham bahramand bo‘ladi. Shu tariqa milliy qadriyatlar o‘z mazmunini boyitadi, umuminsoniy qadriyatlar esa turli milliy shakllarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek falsafiy tafakkurida ushbu masala mustaqillik davrida yanada keng o‘rganila boshladi. Qadriyat, inson qadr-qimmati, axloqiy kamolot, milliy o‘zlik va jamiyatning ma’naviy rivoji masalalari Q. Nazarov, J. Tulenov, X. Shayxova, E. Yusupov va boshqa faylasuflarning tadqiqotlarida muhim o‘rin egalladi. Ularning qarashlari qadriyatlarni faqat tarixdan meros qolgan hodisa sifatida emas, balki inson va jamiyat bilan birga rivojlanib boradigan ma’naviy mezon sifatida tushunishga imkon beradi.

ASOSIY QISM. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar inson hayotida muhim ro‘l o‘ynab kelmoqda. Inson avvalo muayyan xalq, til va madaniyat muhitida voyaga yetadi. Shu muhit orqali uning dunyoqarashi va hayotiy mezonlari shakllanadi. Biroq inson uchun muhim bo‘lgan adolat, erkinlik, tinchlik, yaxshilik va inson qadrini hurmat qilish kabi tushunchalar bir millat doirasi bilan cheklanmaydi. Ular umumiy insoniy mazmunga ega. O‘zbek falsafasida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Qiyomiddin Nazarov milliy qadriyatlarni insonni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi muhim bo‘g‘in sifatida ko‘radi[9]. Uning qarashlariga ko‘ra, inson umuminsoniy qadriyatlarni mavhum holda emas, o‘zi mansub bo‘lgan xalqning tili, tarixi, madaniyati va ma’naviy merosi orqali anglaydi. Shu sababli

[7] Nazarov Q. (2018) Falsafa asoslari. b - 159.
[8] Tulenov J. (1993) Hayot falsafasi. b – 151 https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/118-falsafa
[9] Nazarov Q. (2004) Qadriyatlar falsafasi. . b – 85

milliy qadriyatlar faqat o‘tmishdan qolgan meros emas. Ular insonning bugungi hayoti va jamiyatdagi o‘rniga ham ta’sir qiladi.

Nazarov umuminsoniy qadriyatlarni ham alohida bir xalq yoki guruhga tegishli hodisa sifatida tushuntirmaydi. Ularning asosida insoniyatning umumiy hayoti turadi. Erkinlik, tinchlik va baxt-saodat kabi qadriyatlar turli xalqlar uchun birdek ahamiyatga ega. Shu bilan birga, har bir xalq bu qadriyatlarni o‘z tarixiy tajribasi va madaniyati asosida ifoda etadi. Demak, umuminsoniylik milliy o‘ziga xoslikni yo‘qotmaydi. Aksincha, uning mazmunini kengaytiradi.

Jondor Tulenov ham milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan. U bu ikki turdagi qadriyatlarning bir-biriga ta’sir qilishi va bir-birini boyitishini ta’kidlaydi[10]. Bu fikrning muhim tomoni shundaki, milliy qadriyat o‘zgarmas hodisa sifatida qaralmaydi. Jamiyat rivojlanishi davomida uning ayrim jihatlari yangilanadi. Boshqa xalqlarning tajribasi ham bu jarayonga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq bunday o‘zgarish milliy o‘zlikdan voz kechishni anglatmaydi. Abdurahim Erkayevning ma’naviyat haqidagi tadqiqotlarida ham inson, jamiyat va qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim o‘rin egallaydi. Uning yondashuvida ma’naviyat insonning bilimlari bilangina belgilanmaydi. Unda axloq, e’tiqod, ijtimoiy tajriba va insonning o‘z xatti-harakatiga bergan bahosi ham muhimdir[11]. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar insonning o‘z xalqiga mansubligini anglashiga yordam beradi. Umuminsoniy qadriyatlar esa uning boshqa insonlar va xalqlarga munosabatini kengaytiradi.

Bu qarashlardan milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida doimiy aloqa mavjudligi ko‘rinadi. Milliy qadriyat insonning o‘zligini saqlashiga xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyat esa uni kengroq insoniy mezonlar bilan bog‘laydi. Ulardan birini ikkinchisidan ustun qo‘yish masalaning mazmunini toraytiradi. Muhimi, ularning inson hayotida qanday uyg‘unlashishini tushunishdir.

O‘zbek falsafiy tafakkuridagi ana shu yo‘nalish Erkin Yusupov qarashlarida ham davom ettiriladi. Uning asarlarida milliylik, axloq, inson kamoloti va ma’naviy qadriyatlar bir-biri bilan bog‘liq holda yoritiladi. Shu sababli keyingi bosqichda Erkin Yusupovning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini alohida tahlil qilish zarur.

Erkin Yusupov qarashlarida qadriyat inson va jamiyat hayotidan ajralgan tushuncha emas. Qadriyatning mazmuni insonning ehtiyoji, maqsadi va hayotga munosabati bilan ochiladi. Shu bois inson hayoti, erkinligi, tinchligi, qadr-qimmati va ma’naviy kamoloti alohida ahamiyat kasb etadi. Olim qadriyatlarni jamiyat taraqqiyoti bilan birga o‘zgarib va boyib boradigan hodisa sifatida tushuntiradi.

[10] Tulenov J. (1993) Hayot falsafasi. b – 100-155 https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/118-falsafa
[11] Erkayev A. (2018) Ma’naviyatshunoslik.b – 24-34

Yusupov umuminsoniy qadriyatlarning mazmuniga alohida e’tibor beradi. U: “Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan kishilar uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlar tizimini hosil qiladi, boshqa qadriyatlar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog‘lanishda namoyon bo‘ladi”, deb ta’kidlaydi[12]. Bu fikrda muhim bir jihat mavjud. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan alohida yashamaydi. Ular bir-biri bilan bog‘lanadi va inson hayotida birgalikda namoyon bo‘ladi.

Bu yondashuv milliy qadriyatlarning mazmunini ham kengroq tushunishga imkon beradi. Milliy qadriyat xalqning tarixi, tili, urf-odati va hayot tajribasi bilan bog‘liq. Lekin uning ahamiyati faqat shu xalq doirasida qolib ketmaydi. Insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, halollik va tinchlik kabi fazilatlar milliy muhitda shakllansa-da, mazmunan barcha insonlar uchun qadrli bo‘lishi mumkin. Demak, milliy qadriyatning umuminsoniy ahamiyati undagi insoniy mazmun bilan belgilanadi.

Erkin Yusupov qadriyatlar masalasini insonning axloqiy kamoloti bilan ham bog‘laydi. Uning fikricha: “Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo‘lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishidir”[13]. Bu yerda axloq insonning faqat shaxsiy fazilati sifatida qaralmaydi. U insonning boshqalarga munosabati, o‘z xatti-harakatini boshqara olishi va jamiyat oldidagi mas’uliyati orqali namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan Yusupov qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik axloq orqali ham ko‘rinadi. Halollik, adolat, vijdon, insonparvarlik yoki mehr-oqibat har bir xalq hayotida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishi mumkin. Lekin ularning asosiy mazmuni insonni yaxshilikka undashdan iborat. Bu esa ularni umumiy insoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi.

Yusupovning qarashlaridan yana bir muhim xulosa kelib chiqadi. Milliylikni saqlash umuminsoniy qadriyatlardan uzoqlashishni anglatmaydi. Xuddi shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish milliy o‘zlikdan voz kechish degani emas. Aksincha, milliy qadriyatlar insonparvar mazmun bilan boyiganda ularning jamiyat hayotidagi o‘rni mustahkamlanadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa milliy hayotda aniq shakl va mazmun kasb etadi. Erkin Yusupov qarashlarida inson qadri milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bog‘lab turuvchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning ma’naviy va axloqiy kamoloti jamiyatning rivojidan ajralmaydi. Shu sababli qadriyatlarning ahamiyatini ham ularning inson hayotiga, jamiyatdagi munosabatlarga va ma’naviy muhitga qanday ta’sir ko‘rsatishi orqali baholash mumkin.

[12] Yusupov E. (1994) Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati. b - 53
[13] Yusupov E. (1998) Inson kamolotining ma’naviy asoslari. b - 116

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tayyor va o‘zgarmas holda mavjud bo‘lmaydi. Ular insonning kundalik hayoti, tarbiyasi va jamiyatdagi munosabatlari orqali mazmun kasb etadi. Shu sababli qadriyatni faqat tarixdan qolgan meros sifatida tushunish yetarli emas. Uning hayotiyligi bugungi avlod tomonidan qanday anglanishi va amalda qanday namoyon bo‘lishiga ham bog‘liq. Inson qadriyatlarni avvalo o‘zi yashayotgan muhit orqali o‘zlashtiradi. Oila, ta’lim, til va milliy madaniyat uning dunyoqarashiga ta’sir qiladi. Biroq shaxs ulg‘aygan sari bu qarashlarni shunchaki takrorlamaydi. Ularni o‘z tajribasi orqali baholaydi, ayrimlarini mustahkamlaydi, ayrimlariga yangicha mazmun beradi. A. Choriyevning shaxs doimiy shakllanish va takomillashish jarayonida bo‘ladi, degan qarashi ham shu holatni tushuntirishga yordam beradi[14]. Demak, shaxs rivojlangan sari uning qadriyatlarga munosabati ham rivojlanadi.

Bu jarayonda ta’limning o‘rni alohida. Bilim insonni faqat kasb egasi qilib qo‘ymaydi. U insonning o‘z hayoti, jamiyat va boshqalarga bo‘lgan munosabatini ham o‘zgartiradi. X. Shayxova bilim va kasbni chuqur egallash masalasini inson kamoloti bilan bog‘laydi[15]. Bunda muhim jihat bilimning o‘zi emas, undan qanday maqsadda foydalanilishidir. Bilim jamiyatga foyda keltirsa, inson qadrini oshirsa va yaxshilikka xizmat qilsa, u qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Milliy qadriyatlarning umuminsoniy mazmuni ham aynan insoniy munosabatlarda ochiladi. Masalan, kattaga hurmat, oilaga sadoqat, mehmondo‘stlik yoki Vatanga muhabbat milliy hayotda o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi. Lekin ularning mazmunida hurmat, mas’uliyat, mehr va sadoqat kabi barcha insonlar uchun tushunarli bo‘lgan mezonlar mavjud. Shu sababli milliy qadriyatning ahamiyati faqat uning qadimiyligida emas, balki inson hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishida ham namoyon bo‘ladi. Axloq bu bog‘liqlikni amalda ko‘rsatib beradigan asosiy sohalardan biridir. Inson adolat, yaxshilik yoki halollik haqida gapirishi mumkin. Ammo qadriyat uning xatti-harakatida namoyon bo‘lmasa, bu tushunchalar amaliy mazmun kasb etmaydi. Abdulla Sherning axloqiy qadriyatlarni inson xulqi va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘lashi shu jihatdan muhimdir[16]. Yaxshilik, adolat va insonparvarlik milliy muhitda shakllansa ham, ularning mazmuni ma’lum bir millat chegarasidan chiqib ketadi.

Qadriyatlarning yana bir muhim xususiyati - vorislik va yangilanishning birgalikda kechishidir. Har bir avlod oldingi avloddan ma’lum qadriyatlarni qabul qiladi. Shu bilan birga, ularni yangi sharoitga moslab qayta anglaydi. Shuning uchun milliy qadriyatlarni saqlash ularni o‘zgartirmasdan takrorlash degani emas. Asosiy mazmunni saqlagan holda zamon talablariga mos shakllarni topish ham qadriyatlarning davomiyligini ta’minlaydi.

[14] Choriyev A. (2002) Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. b - 105.
[15] Shayxova X.O. (2009) Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi.b - 115.
[16] Sher A. (2010) Axloqshunoslik. b - 328

Professor M. Qahhorovaning ma’naviy yetuklikni insonning hayotni mazmunli yashashi bilan bog‘lashida ham shu fikrga yaqin yondashuv ko‘rinadi[17]. Qadriyat inson hayotiga yo‘nalish bera olganidagina kuchga ega bo‘ladi. Aks holda u faqat tarixiy xotira yoki nazariy tushuncha bo‘lib qoladi.

Shu nuqtai nazardan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni doimiy harakatdagi jarayon sifatida tushunish mumkin. Milliy qadriyatlar insonni o‘z tarixi va madaniyati bilan bog‘laydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa uning qarashlarini kengaytirib, boshqa insonlar bilan umumiy ma’naviy mezonlarni shakllantiradi. Ularning o‘zaro ta’siri natijasida qadriyatlar saqlanadi, yangilanadi va yangi avlod hayotida davom etadi.

Erkin Yusupov qarashlarida qadriyat masalasi avvalo inson bilan bog‘lanadi. Qadriyat insonning hayotga munosabatida, tanlovida, xulqida va boshqalar bilan aloqasida namoyon bo‘ladi. Uni faqat nazariy tushuncha sifatida qabul qilish yetarli emas. Inson qadriyatni o‘z hayotida his qilishi va unga amal qilishi kerak. Yusupov insonning ma’naviy kamolotiga ham aynan shu nuqtadan yondashadi. Milliy qadriyatlar insonning o‘z xalqiga mansubligini anglashiga yordam beradi. Til, tarixiy xotira, urf-odat, oila va tarbiya shaxs dunyoqarashining shakllanishida katta o‘rin tutadi. Inson bolalikdan ana shu muhit ta’sirida yaxshilik va yomonlik, hurmat, mas’uliyat, vijdon va burch haqidagi dastlabki qarashlarini egallaydi. Bu qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan uning shaxsiy hayot tajribasi orqali yanada boyiydi.

Milliy qadriyatning ahamiyatini faqat uning uzoq tarixga ega ekanligi bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Qadriyat bugungi inson hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lsa, uning mazmuni saqlanadi. Ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, mehr-oqibat, halollik yoki Vatanga mas’uliyat kabi qadriyatlar bunga misol bo‘la oladi. Ularning ifodalanish shakli davrga qarab o‘zgarishi mumkin. Asosiy mazmun esa insonlar o‘rtasidagi hurmat va mas’uliyatga tayanadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar qadriyatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Har bir yangi avlod oldingi avlod yaratgan ma’naviy merosni qabul qiladi. Lekin uni aynan takrorlamaydi. Hayot sharoiti, bilim darajasi va ehtiyojlar o‘zgargani sari qadriyatlarga munosabat ham yangilanadi. Bu holat milliy qadriyatlarning yo‘qolishini anglatmaydi. Aksincha, ularning hayot bilan birga yashashiga imkon beradi.

Yusupov qarashlarida milliylik va umuminsoniylik o‘rtasida tabiiy aloqa mavjud. Milliy muhitda shakllangan ko‘plab fazilatlar boshqa xalqlar uchun ham tushunarli bo‘lgan mazmunga ega. Adolat, vijdon, insonparvarlik, tinchlik, yaxshilik va o‘zgalarga yordam berish shular jumlasidandir. Har bir xalq bu fazilatlarni o‘z tarixi va madaniyati asosida namoyon qiladi. Ularning mohiyatida esa insonning insonga bo‘lgan munosabati turadi. Axloq bu munosabatning kundalik hayotdagi

[17] Qahhorova M.(2008) Ma’naviy ideal. b – 8 https://unilibrary.uz/literature/655486

ko‘rinishidir. Inson adolatni qadrlashi mumkin, lekin boshqalarga nisbatan adolatsiz bo‘lsa, bu qadriyat uning hayotida to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Halollik ham faqat yaxshi sifat sifatida e’tirof etilishi bilan cheklanmaydi. U insonning mehnatida, so‘zida va munosabatlarida sezilishi kerak. Yusupovning axloq haqidagi qarashlarida aynan mana shu amaliy tomon kuchli.

Insonning ma’naviy kamoloti ham shunday jarayon bilan shakllanadi. Ko‘p bilimga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Bilimning qanday maqsadga xizmat qilishi ham muhim. Bilim mas’uliyat, vijdon va yaxshilik bilan uyg‘unlashsa, inson hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Aks holda bilimning o‘zi insonni ma’naviy jihatdan yetuk qilib qo‘ymaydi. Yusupov insonni jamiyatdan ajratib ko‘rmaydi. Oila, mahalla, mehnat muhiti va jamiyatdagi munosabatlar uning qarashlari hamda xulqiga ta’sir qiladi. Inson ham o‘z navbatida ana shu muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Uning halolligi, mas’uliyati, boshqalarga munosabati va mehnati jamiyatdagi umumiy muhitning shakllanishida qatnashadi. Qadriyatlar shaxsiy hayot bilan ijtimoiy hayotni bog‘lab turadigan vositaga aylanadi.

Milliy o‘zlik masalasida ham shunday yondashuvni ko‘rish mumkin. Milliy o‘zlik faqat o‘z tarixini bilish yoki urf-odatlarga amal qilish bilan chegaralanmaydi. Inson o‘z xalqining madaniyati va ma’naviy merosini tushunishi, uning mazmunini anglay olishi kerak. Boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qarash ham bunga zid emas. O‘zligini anglagan inson boshqa madaniyatni inkor etishga ehtiyoj sezmaydi.

Bugungi ochiq dunyoda bu masala yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Turli madaniyatlar bir-biriga yaqinlashmoqda. Axborot, ta’lim va muloqot imkoniyatlari kengaydi. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarni saqlash ularni tashqi ta’sirdan butunlay ajratib qo‘yish orqali amalga oshmaydi. Qaysi qadriyat inson hayoti uchun foydali ekanini, nimani saqlash va nimani yangicha talqin qilish kerakligini anglash muhim. Erkin Yusupov qarashlarida inson qadrini ulug‘lash asosiy mezonlardan biri bo‘lib qoladi. Insonni kamsitadigan, uning erkinligi va qadr-qimmatiga zarar yetkazadigan qarashni faqat “milliy” degan nom bilan oqlab bo‘lmaydi. Milliy qadriyat insonni yuksaltirishi, jamiyatdagi sog‘lom munosabatlarni mustahkamlashi va yaxshilikka xizmat qilishi kerak. Ana shunda uning umuminsoniy mazmuni ham ochiladi.

Milliy qadriyatlar insonning tarixiy xotirasini va o‘zligini saqlaydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa uning boshqa insonlarga munosabatini kengaytiradi. Ular bir-birini inkor qilmaydi. Birining kuchi ikkinchisining mavjudligiga zarar yetkazmaydi. Aksincha, insonparvar mazmun bilan boyigan milliy qadriyat jamiyat hayotida yanada mustahkam o‘rin egallaydi. Erkin Yusupovning bu boradagi qarashlari qadriyatlarning asl kuchi inson hayotida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Milliylik insonning o‘zligini anglashiga xizmat qilsa, umuminsoniylik uning boshqalarga nisbatan mas’uliyatini oshiradi. Axloq va ma’naviy kamolot esa bu ikki

yo‘nalishni birlashtiradi. Shu birlik insonning o‘z tarixiga sodiq qolishi, yangilikni anglay olishi va boshqa insonlarning qadrini hurmat qilishi uchun mustahkam asos yaratadi.

XULOSA. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar inson hayotida bir-birini to‘ldiradi. Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, tili, madaniyati va hayot tajribasini saqlaydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson qadr-qimmati, adolat, tinchlik, erkinlik, halollik va mehr-oqibat kabi barcha uchun muhim mezonlarni ifodalaydi. Ularning uyg‘unligi milliy o‘zlikni saqlash bilan birga, boshqa xalqlar va madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish imkonini beradi.

O‘zbek falsafiy tafakkurida qadriyat insonning ma’naviy kamoloti va jamiyatdagi hayoti bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishi ularning aynan bir shaklda takrorlanishini anglatmaydi. Har bir davr mavjud merosni o‘z hayot sharoiti va ehtiyojlari asosida qayta anglaydi. Shu jarayonda qadriyatning shakli o‘zgarishi mumkin, lekin insonni yaxshilikka, mas’uliyatga va ezgulikka undaydigan mazmuni saqlanib qoladi.

Erkin Yusupov qarashlarida inson qadri milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bog‘lovchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Axloq va ma’naviy kamolot insonning qadriyatlarga munosabatini amaliy hayotga olib kiradi. Halollik, adolat, vijdon yoki insonparvarlik faqat e’tirof etiladigan tushunchalar bo‘lib qolmasligi kerak. Ular insonning xulqi, tanlovi va boshqalarga munosabatida o‘z ifodasini topgandagina haqiqiy mazmun kasb etadi.

Milliy qadriyatlarni asrash ularni zamondan ajratib qo‘yishni talab qilmaydi. Ularni bugungi hayot bilan bog‘lash, inson manfaatlariga xizmat qiladigan jihatlarini rivojlantirish va yosh avlodga tushunarli mazmunda yetkazish muhimdir. Erkin Yusupovning falsafiy qarashlari milliylikni umuminsoniylikka qarshi qo‘ymasdan, ikkalasini inson kamoloti asosida birlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy merosni davom ettirish va inson qadrini yuksaltirish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nazarov Q. (2018) Falsafa asoslari. b - 159.
2. Tulenov J. (1993) Hayot falsafasi. b – 151 https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/118-falsafa
3. Nazarov Q. (2004) Qadriyatlar falsafasi. . b – 85
4. Tulenov J. (1993) Hayot falsafasi. b – 100-155 https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/118-falsafa
5. Erkayev A. (2018) Ma’naviyatshunoslik.b – 24-34
6. Yusupov E. (1994) Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati. b - 53
7. Yusupov E. (1998) Inson kamolotining ma’naviy asoslari. b - 116
8. Choriyev A. (2002) Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. b - 105.
9. Shayxova X.O. (2009) Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi.b - 115.
10. Sher A. (2010) Axloqshunoslik. b - 328
11. Qahhorova M.(2008) Ma’naviy ideal. b – 8 https://unilibrary.uz/literature/655486